

**BUXORO VOHASIDA DINIY MAROSIM VA URF-ODATLARDAGI
TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING ETNOGRAFIK TAHLILI****Gulyamov Alisher Azizovich**

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrası o‘qituvchisi.

aligulyamov1997@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15274881>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro vohasida asrlar davomida shakllanib kelgan diniy marosim va urf-odatlarining zamonaviy davrdagi o‘zgarish (transformatsiya) jarayonlari etnografik yondashuv asosida tahlil etilgan. O‘rganish davomida an‘anaviy diniy marosimlarning mahalliy urf-odatlar bilan uyg‘unlashuvi, ularning shakl va mazmundagi o‘zgarishlari, zamonaviy ijtimoiy-siyosiy omillar ta’siri ostidagi yangilanishi yoritilgan. Maqolada to‘y-marosimlar, dafn va motam marosimlari, Ramazon va Qurbon haytlari, shuningdek, xalq orasida keng tarqalgan turli islomiy rasm-rusumlar misolida transformatsiya jarayonlari o‘rganilgan. Mazkur tadqiqot voha aholisi dunyoqarashi, diniy ongi va ijtimoiy munosabatlaridagi o‘zgarishlarni chuqur anglashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Buxoro vohasi, diniy marosimlar, urf-odatlar, transformatsiya, etnografiya, to‘y marosimlari, motam marosimlari, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, xalq an‘analari, diniy ong, zamonaviy o‘zgarishlar, ijtimoiy madaniyat.

**ETHNOGRAPHIC ANALYSIS OF TRANSFORMATION PROCESSES IN RELIGIOUS
CEREMONIES AND TRADITIONS IN THE BUKHARA OASIS**

Abstract. This article analyzes the processes of transformation of religious ceremonies and traditions that have been formed over the centuries in the Bukhara oasis in the modern era based on an ethnographic approach. The study covers the integration of traditional religious ceremonies with local customs, their changes in form and content, and their renewal under the influence of modern socio-political factors. The article studies the transformation processes using the example of wedding ceremonies, funeral and mourning ceremonies, Ramadan and Kurban holidays, as well as various Islamic rituals and customs widespread among the people. This study helps to deeply understand the changes in the worldview, religious consciousness and social relations of the oasis population.

Keywords: Bukhara oasis, religious ceremonies, traditions, transformation, ethnography, wedding ceremonies, mourning ceremonies, Ramadan Eid, Eid al-Adha, folk traditions, religious consciousness, modern changes, social culture.

**ЭТНОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ
РЕЛИГИОЗНЫХ ОБРЯДОВ И ТРАДИЦИЙ В БУХАРСКОМ ОАЗИСЕ**

Аннотация. В статье на основе этнографического подхода анализируются процессы трансформации в современную эпоху религиозных обрядов и традиций, формировавшихся на протяжении веков в Бухарском оазисе. В исследовании подчеркивается интеграция традиционных религиозных обрядов с местными обычаями, изменение их формы и содержания, а также их обновление под влиянием современных социально-политических факторов. В статье рассматриваются процессы трансформации посредством свадебных церемоний, похорон и траурных церемоний, Рамадана и Курбан-байрама, а также различных исламских ритуалов и обычаев, широко распространенных в народе. Данное исследование поможет глубже понять изменения в мировоззрении, религиозном сознании и социальных отношениях населения оазиса.

Ключевые слова: Бухарский оазис, религиозные обряды, традиции, трансформация, этнография, свадебные обряды, траурные обряды, Рамазан-Ид, Курбан-байрам, народные традиции, религиозное сознание, современные изменения, социальная культура.

Islom diniga e'tiqod qilina boshlangandan so'ng, diniy marosimlar ham o'z o'rnida o'tkazila boshlandi. Biroq oradan vaqt o'tishi bilan ushbu marosimlar, urf-odatlar transformatsion jarayonlar ta'sirida o'zgara boshladi ya'ni bid'at¹ amallar aralasha boshladi va asl mazmunidan farq qila boshladi. Jumladan, ta'ziya marosimi. Dafn marosimi bu – marhumni ko'mish bilan bog'liq bo'lgan katta, ommaviy marosimdir. Dafn marosimi insonlarning paydo bo'lganidan buyon doimiy har xil sabablarga ko'ra o'zgarib turgan ya'ni transformatsiyaga uchrab turgan. Buxoro vohasida dafn (qabr tayyorlash, mayitni yuvish, uni kafanlash, vidolashuv, go'yandaxonlik ya'ni aytib yig'lash, uni ko'mish) va xotirlash (begoyi juma- uch, yeti, yigirma, qirq, yilni oshi, hayitlik, xotirlash, ehson) marosimlari tarzida ham o'tkazilib kelinmoqda. O'zbek xalqi orasida "palakka gul tushdi" iborasi ya'ni vafot etdi, berib qo'ydik, omonatini topshirdi, qazo qildi, bandalik, hayotdan ko'z yumdi kabi iboralar uchraydi. Dastlab, ushbu marosim shariat bo'yicha uch kun etib belgilangan. Ya'ni bir kunda kela olmaganlar ertasi kuni kelib, sabrga chorlash, yupatish maqsadida kelishlari mumkin. Dafn marosimlari insonlar hayotining ajralmas qismi hisoblanib, har bir vohada o'ziga xo'surf va odat, marosimlar bilan o'tkazilib kelinadi. Buxoro vohasidagi dafn marosimlarida ham barcha Markaziy Osiyo mamlakatlarida uchraydigan marosimlarning o'tkazilishi bilan birga vohaning faqat o'zigagina xos-urf va odatlar, an'analarni mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Biroq bugungi kunda ushbu marosimga insonlar tomonidan yangiliklar kiritilib, bid'at amallar ko'paytirilgan:

¹ Bid'at – arab. – (yangilik kiritmoq, yangitdan yaratmoq) noma'qulyangilik, din aqidalariga xilof yangilik.
<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bid'at>

Sunnatga muvofiq bir marta kelib ta'ziya izhor etish mumkin. Har juma kunlari, hayit kunlari kelib ta'ziya izhor etish joiz emas. Sababki, marhumning oilasini yarasini yangilashi mumkin;

Kir yuvdi–diniy asosga ega bo'lmagan marosimdir. Ayollar ta'ziya tugaganligi belgisi sifatida azadorlarning belbog'ini yechib, kiyim-kechaklarini yuvib tashlaydilar.

Kichik dasturxon atrofida faqat mayitning yaqin qarindoshlari yig'iladilar.

Yigirma, qirq, yil oshi – bular ham marhumning ruhini shod etish maqsadida o'tkaziladi.

Lekin bid'at amal hisoblanadi va ortiqcha sarf-xarajatni keltirib chiqaradi. Ushbu kunda ayollar va oz sonli erkaklar yig'ilib, Qur'on tilovat qilishadi, amri-ma'ruf o'tkazishadi. Katta dasturxonlar yoziladi va ko'plab mehmonlar yana kutiladi. Bugungi kunda Buxoro, Samarqand ayollarining orasida tarqalgan yana bir amal paydo bo'lib – ushbu marosimda ishtirok etganlarga sovun, ro'mol tarqatiladi. Bu esa yana ham moliyaviy tanglikni keltirib chiqaradi. Diniy idoralar tomonidan ushbu marosimlarning bid'atligi targ'ib etilganidan so'ng ancha qisqartirilganiga qaramay, mahalla orasida yaxshiroq obro' qozonish uchun ta'ziya izhor qilish maqsadida kelgan mehmonlarga 2 xil taomlar tortish (quyuq va suyuq) holatlari ham uchraydi. Qolaversa, O'zbekistonning ko'p viloyatlarida jumladan Buxoroda ham maxsus taomlar pishiriladi. O'lim bilan bog'liq xotira kunlari maxsus taom- "holvaytar" pishiriladi. Bu taom qizdirilgan yog'ga un solib, qizargunga qadar baland olovda pishiriladi. Piyola yoki likopchalarga solinib dasturxonga tortiladi. An'anaviy taomlardan bo'g'irsoq bilan po'ssiq ham keng tarqalgan².

Bular marhumning oilasiga yengillik emas aksincha moddiy qiyinchilikka olib kelishi mumkin. Shuni unutmaslik lozimki, ushbu marosimlar, taomlar, sovg'a-salom kabi buyumlar marhumning ruhini shod etmaydi. Aksincha xolis niyatila qilingan duolar maqbuldir.

Qoryog'di- birinchi qor yoqqan kuni marhumning farzandlari hamda eng yaqin qarindoshlari uning xonadoniga kelib, u yerdagi kishilarning holidan xabar olib, marhumning ruhoniyyatiga atab Qur'on tilovat qilishlari mahalliy odatga aylangan³.

Gul – ushbu amal Buxoroda deyarli kam uchraydigan amal bo'lsada, O'zbekistonning ba'zi hududlarida haligacha mavjud bo'lgan nomaqbul amaldir. Bunda marhumning qo'shnilari va yaqinlari marhumning qabriga taom olib borib qo'yishadi.

Chiroq yoqish – Buxoroning ba'zi tumanlarida hozirda ham amalda bo'lganish. Marhum yuvilgan xonada 3 kundan 40 kungacha sham yoqib qo'yiladi yoki chiroq kuni bo'yi o'chirilmaydi. Ishoniladiki, marhumning ruhi ushbu shul'a orqali xonadon a'zolarini kuzatib turadi.

²Iso Jabborov. O'zbek xalqi etnografiyasi. -Toshkent., "O'qituvchi" 1994. -B 175.

³ Islom ma'rifati. Nazariy-uslubiy qo'llanma. -Toshkent.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi,2005. – B.30.

Shuni ta'kidlash lozimki, ayollar jamlanib, o'zlarini urib-yig'lab, dod-faryod qilish kabi maxsus amallari mavjud. Bu ham eng nomaqbul ish bo'lib, Allohning taqdiriga norozilik hisoblanadi. Ayollar orasida aza kiyimlari ham mavjud bo'lib, bugungi kunda bo'rttirish kabi holatlari mavjud ya'ni azador ayol bir yil davomida faqat oq va qora rangli ro'mol bog'lashi, kiyim kiyishi lozim. Aslida, kiyimning ortiqcha zeb-ziynatdan holi bo'lishi va qulay bo'lishi lozim.

Qolaversa, musulmonchilik odatlariga ko'ra, mayyit dafn etilishidan avval toza suv bilan poklanadi. Bu poklash jarayoni "obi rahmatga olish" deb nomlanadi. Mayyitni yuvishda odatda yangi obdastadan foydalanilgan. Xalqning orasida kafanlik matoni olganga savob bo'ladi degan fikr tarqalgani uchun ko'pchilik odamlar uni oldindan olib qo'yishga harakat qilishgan.

"Mushkulkushod" marosimi g'oyasi ham deyarli shunga yaqin bo'lib, mushkullar oson bo'lishini istab Ambar ona ruhiga duolar qilinadi. Marosimda sham yoqish, isiriq tutatish, Qur'on suralaridan tilovat qilish, ko'plab salovat va duolar o'qish kabi urf-odatlar mujassam. Shuningdek, qasida va qo'shiqlar ijro etilib o'tganlar ruhiga bag'ishlash orqali maqsad-murodlari so'raladi⁴.

Diniy urf-odat, an'ana va marosimlar vaqt o'tishi bilan milliy an'ana va marosimlarga aylanib borishi transformatsiyalashuv deb ataladi. Diniy marosimlarni bajarishda kohinlar, keyinchalik ruhoniylar boshchilik qilgan. Ular o'z marosimlarini asta-sekin muayyan dinning talabi, xususiyati, aqidasi va ehtiyojiga moslaganlar.

Yakkaxudolik dini bo'lmish islom dini ko'pxudolikka barham berdi, butun O'rta Osiyo mintaqasi islom dini atrofida birlashdi. Yuqorida aytib o'tilganidek, aholi orasida saqlanib qolgan ba'zi urf-odat va marosimlar transformatsiyalashuv natijasida diniy ahamiyat kasb etmagani holda mahalliy an'ana va marosimlar sifatida saqlanib kelmoqda.

Ushbu amallarning barchasi keyinchalik xalq tomonidan o'ylab topilgan amallar bo'lib, ortiqcha sarf-xarajatni va asosiy mazmun Allohga itoat qilishdagi sustkashliklarni keltirib chiqaradi.

Bugungi kundagi xatna marosimidagi aslida dinimizda mavjud bo'lmagan amallar ham mavjud. Xatna qilishning o'zi sunnat amal hisoblanadi. Hadislarda keltirilishicha, qo'chqor so'yish, ko'ngil xushlik qilish sahobalardan sobit bo'lgan amal ekan. Lekin nihoyatda ko'pchilikni chaqirib, ziyofat uyushtirib, "sunnat to'yi" tashkil etish dinimizda mavjud emas.

Sunnat to'yi aholi orasida eng keng tarqalgan oilaviy marosimlardan biri bo'lib hisoblanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu marosimning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa tuzumiga borib taqaladi hamda mazmuni bo'yicha o'spirinlarning kattalar safiga qo'shilishi munosabati bilan amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin.

⁴ Sultanova R. From Shamanism to Sufism Women/ Islam and Culture in Central Asia. L.: "I.B.Taurus". 2011. -B.3.

Ushbu to'y Buxoro vohasida turli o'ziga xos ko'rinishlarda nishonlanadi. Ushbu marosim boshqa dinlarda jumlada, zardushtiylik va yahudiylar dinida ham uchraydi.

Sunnat to'yi to'g'rida yanada boy ma'lumotlar G.P.Snesarov, H.Ismoilov va V.N. Basilov asarlarida ko'plab uchraydi. Buxoroda asosan ushbu marosimlar mahalla-guzarlarda, jamoaviy holatda ko'pchilik bilan o'tkazilgan va bugungi kunga qadar o'tkazilib kelinmoqda. Vohada ushbu to'yni 800-1000 nafar kishi ishtirokida nishonlangan holatlar mavjud bo'lsa, pandemiya davrida aksariyat to'y va marosimlar kasallik xavfini oldini olish uchun 100 nafarga tushganini ham ko'rishimiz mumkin.

Ushbu marosim uchun tashkil etilgan dasturxonda asosan ichkilik taqdim etiladi. Bu esa diniy ulamolar tomonidan mumkin bo'lmagan ish deyiladi. Sababki, asosan ushbu to'ylarning oxiri janjallar bilan tugayotganligi hech kimga sir emas. Qolaversa, xatna qilingan bolaga oq kiyim kiydirib qo'yiladi. Ya'ni turk mifologiyasiga ko'ra, oq rang ranglarning onasi hisoblanadi⁵.

Shuningdek, oq rangli libos kiyilsa baxt-omad, farovonlik keladi deb ishoniladi. Aslida ranglar shunchaki timsol deya qabul qilingan. Insonga barcha yaxshi ne'matlarni Allohning o'zi beradi. Xatna qilingan Bolani otda sayr qildirish kabi bugungi kunda avj olgan yana bir amal bor.

Bu ham moddiy tomondan kerak bo'lmagan ortiqcha ishdir. Chunki, moddiy qurbi yetmaydigan ota-onalarning farzandiga ushbu amalni qilib bermasa xafagarchilikka olib keladi.

Bunga sabab qilib, Buxoro vohasida bolaning bir bosqichdan boshqa bosqichga ya'ni initsiatsiya bosqichiga o'tish hisoblangan. Bunaqa to'y-tomoshalarga dovulchilar va nog'rachilar ham chaqirilgan. Yana bir bid'at ish lekin aholi tomonidan oddiy hodisa deya o'tkazilayotgan "pul berdi" marosimi ham mavjud. Kelgan mehmonlarning barchasi navbat bilan bolaga pul berishadi. Bu ham dinimizda bo'lmagan ishlardandir. Aksincha chiroyli sovg'a-salom ila bola ko'nglini ko'tarilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buxorodagi ko'plab marosimlarning transformatsiyaga uchrashi, etnografik jihatdan turli birliklardan tashkil topgan xalq hayotida yillar davomida o'z ta'sirini o'tkazib keldi. Nikoh oldi va nikoh, undan keying marosimlarning o'tkazilish tatibi, ishtirokchilarning hsamda ulardagi an'ana, urf va odatlarning avloddan avlodga o'tib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan nikoh oldi (qiz tanlash, sovchilik, javob berdi, oq o'ratish, oqlik, non sindiri ya'ni non shikanon, oq kiyimga qaychi urish, shirinixo'ri, maslahat oshi, sitora palov, hayit bayramiga dasturxon yuborish, tog'ora jo'natish, diniy marosim- xutba o'qitish ya'ni nikohlanish, davlat ro'yhatidan o'tish – FHDYO), nikoh to'yida qilinadigan marosimlar (fotiha to'yi, padar osh, xinabandon ya'ni qizlarning bazmi, jomapo'shon - kuyov bolaga to'n kiydirish, kuyov eltish- domot bari kabilar), to'ydan keying marosimlar (chimildiq, kelinni yangi uyga olib

⁵Davlatova S. O'zbek kiyimlari atamallari izohli lug'ati. –Toshkent.: "Yanginashr",2017. –B.23.

kelish va oyog'i ostiga qo'y so'yish – ushbu amal shirkka sabab bo'lib qolmasligi uchun niyyat to'g'rilanib, boshqa paytda qo'y so'yilishi lozim; olovda aylantirish- bu amal ham nojoiz ishlardan hisoblanadi; salomnoma, mahsi yechar, yuz ochar- ro'yi binon, kelin salom-sarsho'yon marosimi, kelin – kuyovga joy solib berish, joyni yig'ish- joyg'ondoron, talbon-chaqirdi) marosimlarini misol qilish mumkin.

Ta'kidlash joizki, mustaqillikdan so'nggi yillarda bu marosimlarda qator o'zgarishlar sodir bo'lgan bo'lishi bilan bir qatorda yangi ko'rinishdagi urf va odatlar ham aholining orasiga shiddat bilan kirib transformatsiya jarayonlariga uchramoqda. Barcha marosimlarning har birida ko'plab ramzlar, ma'nolar, ezgu orzu-intilish va harakatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Shu sabab ham ushbu marosimlar bugungacha ham avloddan avlodga meros bo'lib o'tmoqda.

REFERENCES

1. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIIY-IQTISODIY, MA'NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.
2. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
3. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
4. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
5. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
6. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227.
7. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 471-478.
8. Gulyamov, A., & Ashurov, D. (2025). CHANGES IN THE LIFE OF THE WORLD'S COUNTRIES AFTER WORLD WAR II. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 333-341.

9. Gulyamov, A. (2025). MANG 'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 790-798.
10. Gulyamov, A., & Xamidova, R. (2025). ABU RAYHON BERUNIY BUYUK QOMUSIY OLIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 758-766.
11. Gulyamov, A. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA ISTIQOMAT QILGAN MILLIY-ETNIK GURUHLAR. *Modern Science and Research*, 4(2), 1020-1028.
12. Srojeva, G., Haqqulov, M., & Gulyamov, A. (2025). KUDZULA KADFIZ BOSHCHILIGIDA KUSHON IMPERIYASIGA ASOS SOLINISHI VA BU IMPERIYANING RAVNAQI. *Modern Science and Research*, 4(2), 109-117.
13. Haqqulov, M., Gulyamov, A., & Srojeva, G. (2025). JADIDLARNING 1916 YILDAGI XALQ QO'ZG'OLONIDA TUTGAN O'RNI. MILLIY HUKUMAT-TURKISTON MUXTORIYATI VA UNING FAOLIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 100-108.
14. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO MUZEYINING II JAHON URUSHIGACHA BO 'LGAN DAVRDAGI FAOLIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 92-99.
15. Gulyamov, A., & Atoyeva, M. (2025). ABU ALI IBN SINO-ILM-FAN TARIXIDAGI BUYUK ALLOMA. *Modern Science and Research*, 4(3), 591-599.
16. Gulyamov, A., Yarashova, M., & Karimov, S. (2025). BUXORO VOHASIDA MATO VA MATO TAYYORLASH USULLARI. PAXTA. G 'UZAK. JUN. XALAJI. BO 'Z. OLACHA. BEQASAM. BAXMAL. ADRAS. *Modern Science and Research*, 4(3), 330-340.
17. Gulyamov, A. (2025). O 'RTA ASR SHAHARLARINING DEMOGRAFIK HOLATI, SHAHARLARNING KENGAYISHI, AHOLINING IJTIMOIIY TARKIBI. *Modern Science and Research*, 4(3), 974-983.
18. Gulyamov, A., Yarashova, M., & Karimov, S. (2025). ПОЛЬ ХАНА УЗБЕКА В РАСПРОСТРАНЕНИИ ИСЛАМА В ЗОЛОТОЙ ОРДЕ. *Modern Science and Research*, 4(3), 146-154.
19. Gulyamov, A., Yarashova, M., & Karimov, S. (2025). O 'RTA ASRLARDA G 'ARBIY YEVROPADA SHAHAR-QAL'A, SHAHAR-CHERKOV, SAVDO O 'BYEKTI AHAMIYATIGA OID SHAHARLARNING VUJUDGA KELISHI. *Modern Science and Research*, 4(3), 122-131.
20. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.

21. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
22. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
23. Haqqulov, M. (2024). O'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI". *Modern Science and Research*, 3(12), 609-613.
24. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 663-672.
25. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(11), 154-159.
26. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 319-325.
27. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. *SCHOLAR*, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
28. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. *TADQIQOTLAR.UZ*, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
29. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
30. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
31. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
32. MB Bahodir o'g'li. (2024). Military Art of Turkish Khaganate in the Early Middle Ages. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 4(16), 223–227. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2705/2586>

33. XORAZMSHOHIDLAR DAVLATI HAYOTIDA TURKON XOTUNNING O'RNI. (2024). MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE, 2(4), 463-469. <https://universalpublishings.com/index.php/mpptp/article/view/5192>
34. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich, (2023). LAND OWNERSHIP RELATIONS BASED ON THE NATIONAL ECONOMY OF KARAKALPAK. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 20–27. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue11-04>
35. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich, . (2023). STUDY OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN ETHNOLOGICAL SCIENTIFIC WORKS HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 61–68. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-11>
36. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.
37. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARXITEKTURA TARAQQIYOTI MEROSI. *Modern Science and Research*, 3(12), 852-858.
38. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1–5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
39. Sayfutdinov F. (2024). ILLUMINATION OF THE SPIRITUAL LIFE OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN RESEARCH. *Journal of Universal Science Research*, 2(5), 441–452. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/34891>
40. Umidjon Xayrullayev. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13958464>
41. Xayrullayev Umidjon Fayzullo o'g'li. (2024). LEGITIMACY OF RULERSHIP IN THE STATE OF CENTRAL ASIA AND IRAN IN ANCIENT TIMES AND THE EARLY MIDDLE AGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222295>
42. Xayrullayev, U. (2024). EFTALLAR DAVLATI VA TURK XOQONLIGIDA HUKMDORLIK LEGITIMATSIYASI. *Modern Science and Research*, 3(12), 843–851. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58469>
8. BIRINCHI RADIO EHTIYOTLAR TARIXIDAN. (2024). MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE, 2(4), 657-663. <https://universalpublishings.com/index.php/mpptp/article/view/5240>

43. Xayrullayev, U. (2024). TURK XOQONLIGI VA ARABLAR BOSQINI DAVRIDA O'RTA OSIYO HOKIMLIKLARINING MAVQEYI. *Modern Science and Research*, 3(12), 339–343. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58055>
44. Xarullayev Umidjon. (2024). RELIGIOUS AND THREATS IN MEDIASPACE. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 593–595. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11311154>
45. Boltayev, O. (2024). QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
46. Obid o'g'li, B. O. QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.
47. Boltaev, O. (2024). BUKHARA'S CARAVAN TRADE AND ITS ROLE ON THE SILK ROAD. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(10), 293-297.
48. Boltayev, O. (2024). XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA VA TURKIYA ITTIFOQINING MARKAZIY OSIYOGA TA'SIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 556-564.
49. Boltayev, O. (2023). A GENERAL DESCRIPTION OF THE POLITICAL AND DIPLOMATIC PROCESSES IN CENTRAL ASIA IN THE MIDDLE OF THE 18TH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(9), 145-149.
50. Boltayev, O. (2025). TARIX FANI UCHUN YOZMA VA OG'ZAKI MANBALARNING SHAKLLANISHI. *Modern Science and Research*, 4(1), 909-917.
51. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
52. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755–757.
53. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132–135.
54. Sadullayev, U., Muyiddinov, B., & Boltayev, O. (2025). YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA MILLIY TARBIYA VA TA'LIMNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 59–67.
55. Sadullayev, U., Muyiddinov, B., & Boltayev, O. (2025). IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 4(1), 52–58.

56. Vahobovna, S. G. (2024). TALIM SOHASIDAGI ISLOHATLAR ECHIMI, NATIJALARI VA MUAMMOLARI.
57. Vahobovna, S. G. (2024). O'zbekiston Olimlaring Inson Falsafasi Haqidagi Qarashlari. *Journal of Innovation in Volume*, 2(8).
58. Vahobovna, S. G. (2024). O'zbekiston Olimlaring Inson Falsafasi Haqidagi Qarashlari. *Journal of Innovation in Volume*, 2(8).
59. Srojeva, G. (2025). BO'RIBOY AHMEDOVNING "TARIXDAN SABOQLAR" ASARIDA SHAYBONIYLAR DAVRI TARIXINING O'RGANILISHI. *Modern Science and Research*, 4(2), 1227-1236.
60. Srojeva, G., & Idiyeva, S. (2025). MANG'ITLAR SULOLASINING BUXORO AMIRLIGIDA HOKIMIYATNI EGALLASHI VA MANG'ITLAR DAVRIDA AMIRLIKDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MADANIY HAYOT. *Modern Science and Research*, 4(2), 830-836.